

ARAB TILIDA ISMIY VA FE'LIY GAPLARNING TUZILISHI VA ULARNING STILISTIK FUNKSIYASI

Tursunova Xadicha Ibrohim qizi

Oriental universiteti arab filologiyasi

fakultetining 3-bosqich talabasi

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi ikki asosiy gap turi – ismiy gap(الجملة الاسمية) va fe'liy ga(الجملة الفعلية)ning grammatik tuzilishi hamda ularning stilistik funksiyalari ilmiy gapning esa harakat, voqea va dinamika yaratishdagi uslubiy ahamiyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, har ikki gap turining qo'llanish o'rinlari solishtirilib, matn tuzishda ularning stilistik ta'siri misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ismiy gap, fe'liy gap, muftado, xabar, fe'l, foil, maf'ulun bih, sintaktik tuzilma, stilistik funksiyalar, tavsif.

Abstract . This article analyzes the grammatical structure and stylistic functions of the two main types of sentences in the Arabic language - the nominal sentence (الجملة الاسمية) and the verb sentence (الجملة الفعلية) on a scientific basis. The role of the nominal sentence in expressing stability, state and permanence, and the stylistic importance of the verb sentence in creating action, event and dynamics are explained in detail. The places of application of both types of sentences are also compared, and their stylistic effect in text composition is shown with the help of examples.

Keywords: Noun clause, Verb clause, Predicate, Message, Verb, Verb, Verbal, Syntactic structure, Stylistic functions, Description
Arab tili semitik tillar oilasiga mansub bo'lib, o'zining murakkab sintaktik tizimi, keng grammatik kategoriyalari va boy uslubiy qatlamlari bilan ajralib turadi. Arab

tilidagi gaplar tuzilishi nafaqat grammatik jihatdan, balki stilistik va semantik nuqtayi nazardan ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa ismiy gap va fe'liy gap kategoriyalari arab nutqining mazmuniy va uslubiy shakllanishida markaziy o'rin tutadi. Ismiy gap ko'proq mavjudlik, tavsif va barqaror holatni ifodalasa, fe'liy gap harakat, voqea, o'zgarish va davomiy jarayonlarni yetkazadi. Shu sababli arab tilida mazmun yaratish jarayonida ushbu ikki gap turining farqlarini, ularning sintaktik mexanizmlarini va stilistik funksiyalarini yaxshi bilish tadqiqotlar hamda amaliy nutqda muhim sanaladi.

Ismiy gap – ism bilan boshlanadigan gap bo'lib, odatda muftado خبر va xabar خبر qismlaridan tashkil topadi. Va u zgarmas sifatlar va haqiqatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu gap turi mavjudlik, holat va doimiylikni ifodalashda eng ko'p qo'llanadi.

Ismiy gap ega مبتدا va kesimdan خبر tuzulib, odatda birinchi muftado aniq holatda, xabar undan kegin noaniq holatda keladi.

Biz ismiy gapni quyidagicha tuzamiz: Muftado – gapning bosh qismi, ko'pincha ma'lum yoki aniq bo'ladi. Xabar – muftada'ning hukmini, xususiyatini yoki holatini bayon qiladi.

Masalan : الطالب مجتهد "Talaba tirishqoq". الجو جميل "Havo chiroyli".

Ismiy gapning stilistik funksiyasi : Doimiylik, barqarorlik, holatni tasvirlashda ishlatiladi. Tavsif va sifatlashda kuchli ta'sir beradi. Nutqda xotirjamlik va rasmiy ohang yaratadi. Vaqtga bog'lanmagan umumiy ma'noni beradi.

Fe'liy gap (الجملة الفعلية)

Fe'liy gap — fe'l bilan boshlanadigan gap bo'lib, odatda fi'l (فعل), fa'il (فاعل) va ba'zan maf'ul bih (مفعول به) dan tashkil topadi. Fe'l bilan boshlangan gapga الجملة الفعلية fe'li jumla deyiladi. Bu gap turida harakat, yangilik va voqeylik yetakchi o'rinda bo'ladi.

Fe'l quyidagicha tuslanadi :

Fe'l — gapning asosiy qismi, vaqt va harakatni bildiradi.

Foil — harakatni bajaruvchi shaxs yoki narsadir.

Mafʼulun bih — harakat nishoni (majburiy boʻlmasligi mumkin).

Masalan: كتب الطالب الدرس "Talaba darsni yozdi". جاء محمد "Muhammad keldi".

Feʼliy gap harakat, voqea va yangilikni ifodalashda ishlatiladi. Nutqqa jonlilik, harakatchanlik va dinamika beradi. Voqea rivojini ketma-ket tasvirlashda juda samarali. Vaqt, harakat yoʻnalishi, tezlik kabi mazmunlarni kuchaytiradi. Ismiy va feʼliy gaplarning solishtirilishi

Xususiyat	Ismiy gap	Feʼliy gap
Boshlanishi	Ism bilan	Feʼl bilan
Asosiy maʼno	Holat, sifat, doimiylik	Harakat, oʻzgarish, voqea
Stilistik ohang	Tinch, barqaror, rasmiy	Harakatchan, jonli, hikoyaviy
Qoʻllanilish oʻrni	Tavsif, taʼrif, ilmiy matn	Hikoya, voqea, bayoni, amaliy nutq

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arab tilidagi ismiy va feʼliy jumlar tilning sintaktik tizimini tashkil qiluvchi eng muhim grammatik birliklar sanaladi. Ismiy jumla oʻz tabiatiga koʻra mavjud holatni, doimiylikni, sifat va tavsifning barqaror koʻrinishlarini ifodalashga xizmat qiladi. U muftado va xabarning oʻzaro sintaktik bogʻlanishi orqali mazmunni mantiqan toza, ravshan va tizimli shaklda yetkazadi. Shu bois u koʻproq tavsifiy bayonlarda, taʼrif va tasvirlarda, shuningdek, insonning ichki holati yoki doimiy xususiyatlarini ifodalovchi matnlarda keng qoʻllaniladi.

Feʼliy jumla esa arab tili sintaksisida harakatning yuz berishi, rivojlanishi, vaqt bilan bogʻliq ketma-ketlik va jarayonlarning ifodasiga yoʻnaltirilgan boʻlib, feʼl, foil va mafʼul oʻrtasidagi grammatik munosabatlar orqali nutqqa jonlilik, tezlik, voqelik dinamikasini olib kiradi. Feʼliy tuzilmalar hikoya, rivoyat, tarixiy voqealar bayoni

hamda harakatning davomiyligi yoki boshlanishini ko'rsatishga ehtiyoj tug'ilgan holatlarda kuzatilganidek eng samarali vositadir.

Mazkur ikki gap turining farqlarini chuqur o'rganish arab tilini puxta egallash, matnlarni to'g'ri tahlil qilish, murakkab sintaktik tuzilmalarni anglash va ulardan nutqda maqsadga muvofiq foydalanish imkonini kengaytiradi. Ayniqsa, ilmiy, badiiy, diniy va publitsistik matnlarni o'qishda muftado-xabar va fe'l-foil tizimini farqlay olish mazmunni aniq idrok etish hamda matndagi uslubiy nozikliklarni sezish imkonini beradi.

Shu bois ismiy jumla va fe'liy jumlaning o'ziga xos grammatik tuzilishini puxta bilish nafaqat arab tilidagi gaplar tuzilishini anglashga, balki talaba, o'quvchi yoki mustaqil o'rganuvchi uchun tilni mantiqiy, tizimli va chuqur o'zlashtirishga ham xizmat qiladi. Natijada, to'g'ri tanlangan gap turi matnning uslubiy aniqligi, mazmuniy boyligi va ta'sirchanligini oshiradi hamda arab tilida ravon va tushunarli nutq ishlab chiqishda muhim poydevor vazifasini bajaradi. Ismiy va fe'liy jumalarni chuqur o'rganish arab tilining, ayniqsa, klassik matnlar, Qur'oni karim oyatlari, hadislar va qadimiy adabiy manbalar mazmunini to'g'ri anglashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu manbalarda gap tuzilishi nafaqat grammatik, balki ma'naviy hamda uslubiy maqsadlarga ham xizmat qiladi. Masalan, Qur'onda ismiy jumlalarning ishlatilishi Allohning sifatlari, doimiylik va abadiylikni ifodalovchi oyatlarda keng uchrasa, fe'liy jumlar esa voqealarning sodir bo'lishi, tarixiy jarayonlar, payg'ambarlar qissalari yoki amr-nahiy mazmunidagi oyatlarda keng qo'llangan.

Shuningdek, arab tilida gap turining tanlanishi nutqning ruhiy ta'sirini, ohangini va mantiqiy urg'usini belgilab beradi. Masalan, ismiy jumlaning qo'llanishi xotirjamlik, barqarorlik, tasvirning muvozanatli ifodasi uchun xizmat qilsa, fe'liy jumla tinglovchi yoki o'quvchini voqeaga jalb etuvchi harakat ruhi, tezlik va jonlilik bilan ta'minlaydi. Bu jihatni anglash tarjima jarayonida ham juda muhim, chunki asli matndagi uslubiy ta'sirni saqlab qolish uchun gap turining tanlanishiga e'tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, arab sintaksisida ismiy va fe'liy jumlalarning turli variantlari, kengaytirilgan shakllari, ellipsis (tushirilgan bo'laklar), taqdir (koniklangan strukturalar) kabi murakkab grammatik hodisalarni to'g'ri tushunish ham aynan ushbu ikki asosiy gap turining poydevor sifatida puxta o'rganilganiga bog'liq. Bu esa talabaga murakkab nahv qoidalarini osonroq o'zlashtirishga, matnlardagi yashirin munosabatlarni tushunishga, arab tilining murakkab sintaktik tizimini anglashga yordam beradi.

Oxir-oqibat, ismiy va fe'liy jumlalarning farqlari, ularning uslubiy yuklamalari, tuzilish xususiyatlari va amaliy qo'llanishini mukammal bilish har qanday o'rganuvchi uchun arab tilida puxta, mantiqiy va badiiy ifodani shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, mazkur gap turlari arab tili nahvining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham eng tayanch bo'limlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirqobil Xasanov, Muborak Abzalova. "Arab tili darslari" o'quv qo'llanmasi. 46-bet T-2006.
2. Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad yusupov "Arab tili grammatikasi" 97-bet 1997
3. San'atulloh Bekpo'latov "Mabdaul qiroat" 74 -bet 2020 yil
4. file:///C:/Users/MSI/Downloads/FE%E2%80%99LNING+NISBAT+KATEGORIYASI%20(2).pdf
5. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: "RISALATUN FIN-NAHV" ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA'LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
6. Jo'rayeva, M. A. "SHARHI MULLO" A RARE SOURCE.
7. Fatilloyev, M. (2025). "MU'JAMU-L-UDABO" DA MOVAROUNNAHR OLIMLARI HAQIDA MA'LUMOT. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 645-654.

8. Raximjonov, M. (2023). Al-Farg ‘oniyning falakiyot haqidagi qarashlari. *Alfraganus*, (2 (2)), 28-33.
9. Nugmanovich, R. M. Methods of Working on the Text in Uzbek Language Lessons. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 234-237.
10. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGABIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
11. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit "Malak" In The Epic "Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS* *Учёным: The USA Journals*, 2(9), 493-498.
12. Xodi o‘g‘li, M. I. (2025, October). SAIDBEK HASANOV TAHLILIDA O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING ZAMONAVIY TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 360-363).
13. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziy merosida tarjima nazariyasi va didaktikasi: “Risalatun fin-nahv” asari va zamonaviy tarjima ta’limi integratsiyasi*. *Science Time Journal*, 3(5), 150–155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
14. MUZEYI, A. N. N. D. A., & MEROSI–MO‘TABAR MADANIY, M. A. N. B. A. (2024). ORIENTAL UNIVERSITETI O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI.
15. Raxmonov, A. K. (2024). *Al-Farg‘oniyning «Usturlub yasash haqida kitob»ining Britaniya muzeyida saqlanayotgan “OR 5479” raqamli qo‘lyozma nusxasi*. *Til va adabiyot.uz*, 2024(1), 22–26.
16. Raxmonov, A. K. (2023). *Oliy ta’lim muassasalarida arab tilini o‘qitishning zamonaviy usullari*. In “Bir makon, bir yo‘l” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.
17. Gulmuradovna, J. N. (2025). XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDA TIL KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. *Indexing*, 1(1), 86-90.